

REGISTON MAYDONI VA UNING YARATILISHI

Raxmatov Abduvali Abdulxakimovich

Chilonzor tumani MMTB tasarrufidagi 200-sonli IDUM o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Registon maydoni tarixiga qisqa nazar tashlasak, bu yerda qadimdan ijtimoiy hayot qaynaganini ko‘rish mumkin. Antik davrda hozirgi Registon maydonidan Afrosiyob shaharchasi tomonga katta ariq o‘tkazilgan. VIII-X asrlarda Registon maydoni o‘rnida juda ko‘plab imoratlar paydo bo‘la boshlaydi, chunki, Samarqandni istilo qilgan arablar Afrosiyobdan bir necha minglab mahaliy aholini majburlab ko‘chirgan edilar. Aynan shu davrlarda bu yerda hunarmandlarning ustaxonalari, savdo rastalari bunyod etiladi. XI-XII asrlarda hozirgi Registon maydoni o‘rni va atrofidagi mahallalar tashqi mudofaa devori bilan o‘ralib «tashqi shahar» nomi bilan atala boshlaydi. 1220 yili Afrosiyob Chingizzon tomonidan vayron qilingach, bu yerda yashashni iloji qolmaydi, tirik qolgan xalq hozirgi eski shahar tomonga, ya’ni, Registon maydoni atrofiga ko‘chib o‘tadi. Bu yerdan oqib o‘tuvchi kanal ancha kengayib, sayozlasha boshlaydi. Shundan so‘ng, kanal uchun yangi o‘zan qazilib jilovlanadi. Kanalning eski o‘zanida juda ko‘p qum to‘planganligi uchun bu joy Registon, ya’ni, «qumloq joy» deb atala boshlandi. Sohibqiron Amir Temur davrida Registon maydoni o‘rnida markaziy bozor joylashgan, shuningdek, bu yerda jahongirning xotini Tuman og‘a tomonidan barpo qilingan usti yopiq savdo timi-rastalar quriladi. Registon maydonining me’moriy tomonidan shakllanishi Mirzo Ulug‘bek hukumronligi davridan boshlangan. Samarqandga 40 yil (1409-1449 y.) huqmronlik qilgan ulug‘ munajjim Mirzo Ulug‘bek bu shaharning obodonchiligi borasida hyech narsani ayamadi [1-2].

REGISTON ANSAMBLI — Samarqandning Registon maydonida uch Madrasa – Ulug‘bek, Tillakori va Sherdor madrasalaridan iborat me’moriy majmua.

Dastlab Ulug‘bek madrasasi 1417 – 1420 yillarda bunyod etilib, keyinchalik qarshisiga — maydon sharqiga Ulug‘bek xonaqohi (1424 y), shimoliy qismiga Mirzoyi karvonsaroyi, janubiy qismiga Alika Ko‘kaldosh Juma masjidi (1430 y) qurdirgan, yonida esa yog‘ochdan xotamkori uslubida masjidi Muqatta va Abusaid madrasasi qurilgan. XV-asrning 20-40-yillarida Registon hashamatli me’moriy ansamblga aylangan. XVII-asrda Samarkand hokimi Yalangto‘sh Bahodir vayrona holatdagi Ulug‘bek xonaqohi o‘rniga Sherdor Madrasa (1619-1635/36)ni, Mirzoyi karvonsaroyi o‘rniga Tillakori madrasa-masjidi (1646/47-1659/60) ni qurdirgan. Registon ansamblı o‘zining rang-barang koshinkori bezaklari, naqshinkori peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O‘rta Osiyo me’morligining noyob yodgorligi hisoblanadi.

ULUG‘BEK MADRASASI – 1417 – 1420 yillarda Samarqanddagı me’moriy yodgorlik. Registon ansamblining g‘arbida joylashgan. Ikki qavatlari, to‘g‘ri to‘rtburchakli bino. Bosh qismi maydonga qaragan, mahobatli peshtoq uning ikki yonida guldstalar bor. Ravoq tepasidagi yulduzli osmon aks etgan bezaklar o‘ziga xosdir. Peshtog‘i, guldstasi va tashqi devorlarida naqshlarning turli betakror namunalari aks etgan. Ganchkorli panjaralar orqali xonaga yorug‘lik tushib turadi. Moviy va ko‘k koshin hamda sopol g‘ishtlar vositasida geometrik naqshlar bilan bezatilgan devor satqi yozuvlar bilan o‘zaro uyg‘unlashib, ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Peshtoq orqali chorusu hovli (30×30 m)ga o‘tiladi. Hovli atrofi ikki qavatlari hujralar (48 ta) b-n o‘ralgan, har bir hujra qaznoq, yotoqxona, umumiylar xonadan iborat. Madrasanining shimoliy va janubiy tarzlari o‘rtasida tashqi tomonidan alohida peshtoqlar bor. Madrasanining to‘rt tomonini darsxona va ayvon egallagan. Masjid janubiy-sharqiy tomonga cho‘zilgan. Tashqi to‘rt burchagida 4 ta baland minora bor. Xonaqoh va ba’zi hujralar

ichkarisi naqshin bezaklar bilan pardozlangan. Bezaklari orasida kufiy va suls yozuvlari uchraydi. Vayron bo'lgan ikkinchi qavati, qiyshaygan guldastasi, devorlaridagi ko'chib ketgan bezaklar qayta tiklangan.

Ulug'bek madrasasi me'moriy shakli, tuzilishi jihatidan O'rta Osiyo me'morligida shu turdag'i binolar orasida eng mukammal yuksak san'at namunasi xisoblanadi [1-3].

SHERDOR MADRASA - 1619 – 1636 yillarda Samarqanddagi barpo etilgan me'moriy yodgorlik. Registon ansambli tarkibida. Mirzo Ulug'bek xonaqohi o'rniga Yalangto'sh Bahodir qurdirgan. Ulug'bek madrasasining ro'parasida joylashgan. Madrasa tarhi to'rtburchak, ikki qavatlari. Binoning bosh qismida ikki qanotida qovurg'ali gumbaz va minoralar joylashgan. Peshtoq ravog'i ichkarisidagi koshinkori bezak orasida qora zaminli koshinga oq harflar bilan me'mor Abdujabbor nomi yozilgan. Qanotlaridagi qizg'ish zarhal tusli sher oq ohuni quvmoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko'zli qilib tasvirlanib, yuzi zarhal tusli yog'du bilan hoshiyalangan. Madrasa nomi shu tasvirdan kelib chiqqan. Binoning serhashamligi shu peshtog'ida. Peshtoqning ikki tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Hovli atrofida joylashgan 54 ta ikki qavatlari hujralarning oldi ravoqli ayvon qilib qurilgan. Ayvonlar yozda darsxona vazifasini o'tagan. 1960-1964 yillarda peshtoqdagi koshinkori naqshlar qayta tiklangan [3].

TILLAKORI MADRASA - 1641-1646 yillarda bunyod etilgan Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Registon ansamblida Ulug'bek davrida bunyod etilgan Mirzoyi karvonsaroyi o'rnida Samarqand hokimi Yalangto'shbiy Bahodir madrasa va jome masjid qurdirgan. Karvonsaroy asosi ustiga madrasa, hujralar o'rnida peshtoq gumbazli masjid joylashgan. Dastlab «Yalangto'shbiy kichik madrasasi» deb nomlangan. Keyinchalik masjid bezagida boshqa bir obida qurilishiga yetadigan miqdorda oltin sarflangani uchun «Tillakori» (tilladan ishlov berilgan) deb yuritila boshlagan. Tillakori madrasadan shahar jome masjidi va madrasa sifatida foydalanilgan. Shuning uchun masjidi katta va serhashamligi bilan boshqa madrasalardan ajralib turadi. Madrasaga g'arbiy peshtoq orqali kiriladi. Peshtoq chuqr ravoqli, ikki qanotining oldi ravoqli, ikki qavatlari hujralar, burchaklarini teng hajmdagi guldasta-mezanalar egallagan. Masjid xonaqohnining poygumbazi baland, uzoqdan ko'zga tashlanib turadi. Uning gumbazi nihoyasiga yetkazilmagan. Xonaqoh to'riga marmardan mehrob va zinapoyali minbar ishlangan. O'z davrida zarhal naqshlar bilan jozibador bezatilgan xonaqohning ikki yonini oldi ravoqli, gumbaz tomlari ayvonlar egallagan. Peshtoq ravog'idagi marmar taxtachada bezak ishlari 1659 - 1660 yillarda bajarilganligi yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

G.,afur G.,ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2013.

Jo,,rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. To,,ldirilgan, qayta nashr.

1. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas'ul muharrirlar: Abdullayev R., Rajabov Q., Rahimov M. -Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Mahkamov S., Odilov A. O'zbekiston tarixi fanidan ma'ruzalar texnologik xaritalari. - Toshkent.: Fan va texnologiya, 2012.
3. O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.
4. Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O'zbekiston , 2005.